



“Toshkent issiqlik elektr stansiyasi” AJ
yagona aksiyadorining
2023 yil “25” oktabrdagi
2/2023 - sonli qarori bilan
“Tasdiqlangan”



R.T. Shamsiyev

“TOSHKENT ISSIQLIK ELEKTR STANSIYASI”
AKSIYADORLIK JAMIYATI
USTAVI

(yangi tahrirda)

Ustav bo'limlari:

I bo'lim. Umumiy qoidalar

II bo'lim. Jamiyatning asosiy vazifalari hamda funksiyalari

III bo'lim. Jamiyatning ustav fondi (kapitali). Uni ko'paytirish yoki kamaytirish tartibi. Jamiyatning aksiyalari, obligasiyalari va boshqa qimmatli qog'ozlari

IV bo'lim. Jamiyatning huquqlari

V bo'lim. Jamiyat faoliyatini boshqarish

VI bo'lim. Jamiyatning mulki, vositalari va sarmoyalari

VII bo'lim. Hisobga olish, hisobot berish va nazorat

VIII bo'lim. Jamiyatni qayta tashkil etish va tugatish

IX bo'lim. Korporativ maslahatchi

X bo'lim. Yakuniy qoidalar

I BO'LIM. UMUMIY QOIDALAR

1. «Toshkent issiqlik elektr stansiyasi» (keyingi o'rinda «Jamiyat» deb ataladi) aksiyadorlik jamiyati Yagona ta'sischisi - «Issiqlik Elektr Stansiyalari» aksiyadorlik jamiyati (keyingi o'rinda - Yagona ta'sischisi deb ataladi) ning 2023 yil 6 iyuldagi № 1/2023-sonli Yagona ta'sischisi bayoniga asosan aksiyadorlik jamiyati shaklida tashkil etilgan.

2. O'zbekiston Respublikasining «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi Qonuniga muvofiq, Jamiyatning huquqiy holati aksiyadorlik jamiyati hisoblanadi.

3. Jamiyat tijorat tashkiloti hisoblanadi.

4. Jamiyatni tashkil etish, faoliyat yuritishi, qayta tashkil etilishi va tugatilishi bilan bog'liq munosabatlar O'zbekiston Respublikasining «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi Qonuni va O'zbekiston Respublikasining boshqa qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi.

5. Jamiyatning nomi:

o'zbek tilida – «Toshkent issiqlik elektr stansiyasi» aksiyadorlik jamiyati (qisqartirilgan nomi - «Toshkent IES» AJ) yoki kirill harflarida «Тошкент Иссиқлик электр станцияси» акциядорлик жамияти (qisqartirilgan nomi - «Тошкент ИЭС» АЖ);

rus tilida – Акционерное общество «Ташкентская тепловая электрическая станция» qisqartirilgan nomi - АО «Ташкентская ТЭС».

ingliz tilida – Joint stock company «Tashkent thermal power plant» qisqartirilgan nomi – JSC «Tashkent TPP».

6. Jamiyat yuridik shaxs hisoblanadi, o'zining mustaqil balansida aks ettiriladigan alohida mulkka, shu jumladan o'zining ustav fondiga (kapitaliga) berilgan mol-mulkka, bank muassasalarida hisob raqamlariga, jumladan valyuta hisob raqamlariga, dumaloq muhrga, davlat tilida yozilgan emblema (logotip) va shtamplarga ega. Muhrda bir vaqtning o'zida firmaning nomi boshqa istalgan tilda ham ko'rsatilishi mumkin.

7. Jamiyatning tashkiliy tuzilmasiga mulkchilik shakli va idoraviy mansubligidan qat'iy nazar korxonalar va tashkilotlar, shuningdek chet el yuridik shaxslari kirishi mumkin.

8. Jamiyat qonunchilikda belgilangan tartibda korxonalar, tashkilot va muassasalar, jumladan filiallar hamda vakolatxonalar tashkil etishi mumkin.

9. Jamiyat o'z faoliyatini amalga oshirishda, O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi, O'zbekiston Respublikasi qonunlariga, Oliy Majlis palatalari qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga va mazkur Ustavga amal qiladi.

10. Mazkur Ustav bilan tartibga solinmagan huquqiy munosabatlar O'zbekiston Respublikasining boshqa qonunchilik va me'yoriy-huquqiy hujjatlari, shuningdek xalqaro bitimlar va shartnomalar bilan tartibga solinadi.

11. Jamiyatning joylashgan manzili: O'zbekiston Respublikasi, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Salar shaharchasi. Farovon MFY, TashGRES ko'chasi 227 uy. pochta indeksi – 111219.

12. Jamiyatning elektron pochta manzili: info.tash@tpp.uz

13. Jamiyatning rasmiy veb-sayti: <http://toshkenties.uz>

II BO'LIM. JAMIYATNING ASOSIY VAZIFALARI

14. Jamiyatni tashkil etishdan asosiy maqsad Jamiyatning moliyaviy-xo'jalik faoliyatidan yagona aksiyador manfaatlari uchun foyda olishdir.

15. Jamiyat faoliyatining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- respublika iqtisodiyoti va axolisining extiyojlarini qanoatlantirilishini taminlash maqsadida, mavjud quvvatlardan unumli foydalanish hisobiga, balansda belgilangan miqdorda elektr va issiqlik energiyasini xosil qilinishini taminlaydi;
- elektr energiyasini xosil qiluvchi issiqlik elektr stansiyasi quvvatlarini rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqadi va amalga oshirilishini taminlaydi;
- issiqlik elektr stansiyasida energiya xosil qiluvchi quvvatlarni va elektr va issiqlik tarmoqlarini rekonstruksiya qilish, modernizatsiyalash, rivojlantirish tadbirlarini amalga oshiradi;
- issiqlik elektr stansiyasi elektr energiyasi va yoqilgi-energetika resurslaridan oqilona foydalanish chora-tadbirlarining ishlab chiqilishi va amalga oshirilishini tashkil etadi;
- elektr va issiqlik energetikasi soxasidagi sinov laboratoriyalarining ishlarini tashkil etadi;
- elektr va issiqlik energiyasini xosil qilishdagi ilmiy tadqiqot, sozlash, tamirlash va muxandislik-loyixa ishlarini muvofiqlashtiradi;
- Jamiyatda mehnatni muxofaza qilish va xavfsizlik texnikasiga doir ishlarni muvofiqlashtirilishini amalga oshiradi;

• qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni xam amalga oshirishi mumkin.

16. Jamiyat faoliyatining asosiy yunalishlari va vazifalari quyidagilardan iborat:

- respublika iqtisodiyoti va axolisini elektr va issiqlik energiyasi bilan barqaror taminlash;

- elektr va issiqlik energiyasi ishlab chiqarish va istemol qilish balanslarini shakllantirishda qatnashish;

- ishlab chiqaruvchi quvvatlarni zamonaviy asbob-uskunalar va ilg'or texnologiyalar asosida, shu jumladan xorijiy investitsiyalar hisobiga, rekonstruksiya qilish, zamonaviylashtirish, texnika bilan qayta jihozlash va yanada rivojlantirish;

- elektr va issiqlik energiyasini ishlab chiqarishda mavjud quvvatlardan unumli foydalanish;

- elektr va issiqlik energiyasini xosil qilishda energiyadan oqilona foydalanish va isroflarini kamaytirish chora-tadbirlari rejasini ishlab chiqilishi va amalga oshirilishini tashkil etish;

- elektr va issiqlik energiyasini xosil qilishda Jamiyatda ishlash va xizmat ko'rsatish uchun kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash, ularning malakasini oshirishni tashkil etish;

- xorijiy korxonalar va kompaniyalar bilan iqtisodiy, texnikaviy, texnologik va investitsion xamkorlikni har tomonlama kengaytirish;

- respublika va dunyo bozori konyukturasini o'rganish negizida issiqlik elektr stansiyalarini modernizatsiyasiga va kengaytirilishiga investitsiyalarni jalb etish;

- jamiyat faoliyatida yangi texnologiyalarni va menejmentning ilg'or usullarini joriy etish;

- boshqaruv tizimiga va energiyani xosil qilish va sotish bo'yicha xo'jalik aloqalariga bozor tamoyillari va mexanizmlarini joriy etish;

- energiya xosil qilish quvvatlarning o'zaro bog'langan va muvozanatlashtirilgan tarzda jamiyatning rivojlanishi dasturlarini ishlab chiqish;

17. Jamiyat O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida taqiqlanmagan boshqa faoliyat turlarini ham amalga oshirishga xaqlidir. Maxsus ruxsatnoma (litsenziya) olishni talab qiladigan faoliyat turlari bilan Jamiyat shunday litsenziya olganidan keyin shug'ullanishi mumkin.

18. Jamiyat yuqorida ko'rsatilgan faoliyat turlaridan tashqari o'ziga qarashli bo'linmalar, Jamiyat ishini yaxshilash hamda ularni qo'llab-quvvatlash uchun qonunchilikka zid kelmaydigan boshqa ishlarni ham bajarishi mumkin..

III bo'lim. Jamiyatning ustav fondi (kapitali). Uni ko'paytirish yoki kamaytirish tartibi.

Jamiyatning aksiyalari, obligasiyalari va boshqa qimmatli qog'ozlarni emissiya qilishga haqli.

20. Jamiyat ustav fondining (kapitalining) dastlabki miqdori Jamiyat mulkini baholash asosida **2 237 765 078 000** (ikki trilion ikki yuz o'ttiz yetti milliard yettiyuz oltmish besh million yetmish sakkiz ming) so'm belgilangan.

21. Jamiyat ustav fondi (kapitali)ning miqdori **2 237 765 078 000** (ikki trilion ikki yuz o'ttiz yetti milliard yettiyuz oltmish besh million yetmish sakkiz ming) so'm bo'lib, **2 237 765 078** (ikki milliard ikki yuz o'ttiz yetti million yettiyuz oltmish besh ming yetmish sakkiz) ta oddiy aksiyalarga bo'lingan.

22. Oddiy aksiyaning nominal qiymati 1000 (bir ming) so'mni tashkil etadi.

23. Jamiyat ustav fondi (kapitali) qo'shimcha aksiyalar joylashtirish yo'li bilan ko'paytirilishi mumkin.

24. Jamiyat ustav fondini (kapitalini) ko'paytirish (aksiyalarni joylashtirish narxini belgilash, aksiyalar emissiyasi risolasi va ularni chiqarish) va bu to'g'rida mazkur ustavga tegishli o'zgartirish kiritish haqidagi qarorni Jamiyat aksiyadori qabul qiladi. Ushbu masala bo'yicha Jamiyat Kengashi (kuzatuv kengashi) yig'ilishi o'tkazilmaydi.

25. Agar qonunchilikda boshqacha tartib belgilanmagan bo'lsa, qo'shimcha aksiyalar yopiq obuna usulida joylashtirilishi mumkin.

26. Qo'shimcha ravishda chiqarilgan aksiyalar uni chiqarish to'g'risidagi qarorda belgilangan, lekin davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan e'tiboran bir yildan ortiq bo'lmagan muddatda joylashtirilishi lozim.

27. Jamiyat ustav fondini (kapitalini) oshirish uchun oddiy, e'lon qilingan nominal qiymati 1 000 (bir ming) so'm bo'lgan 200 000 000 (ikki yuz million) dona - umumiy qiymati 200 000 000 000 (ikki yuz milliard) so'mga qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish huquqiga ega.

28. E'lon qilingan aksiyalarning umumiy soni doirasida chiqarishda va joylashtirishda aksiyalarning sotib olingan qismi Jamiyat ustav fondiga (kapitaliga) o'tkaziladi.

29. Jamiyatning ustav fondi (kapitali) aksiyalarning nominal qiymatini kamaytirish yoki aksiyalarning umumiy sonini qisqartirish yo'li bilan, shu jumladan, aksiyalarning bir qismini keyinchalik bekor qilgan holda Jamiyat tomonidan aksiyalarni olish yo'li bilan kamaytirilishi mumkin.

30. Jamiyat ustav fondini (kapitalini) kamaytirish va Jamiyat Ustaviga tegishli o'zgartirish kiritish to'g'risidagi qaror Jamiyat Kengashining (kuzatuv kengashining) yig'ilishini o'tkazmasdan, Jamiyat aksiyadori tomonidan qabul qilinadi.

31. Jamiyatda ustav fondining (kapitalining) 15 foizi miqdorida zaxira fondi tashkil etiladi.

32. Jamiyatning zaxira fondi har yili sof foydadan yillik majburiy to'lovlar ajratish yo'li bilan ustav fondining (kapitalning) 15 foiziga yetmagungacha shakllantirib boriladi.

33. Zaxira fondiga ajratmalarning yillik hajmi Jamiyat daromadining 5 foizidan kam bo'lmasligi lozim.

34. Jamiyatning zaxira fondidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda foydalaniladi.

35. Jamiyat Kengashining qaroriga binoan boshqa fondlar ham tashkil etilishi mumkin.

IV bo'lim. Jamiyatning huquqlari

36. Jamiyat Ustavda belgilangan vazifa va funksiyalarini bajarish maqsadida quyidagi huquqlarga ega:

- O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti va aholisi ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda davlat buyurtmalari va bevosita shartnomalar (kontraktlar) asosida sotiladigan maxsulot, ishlar va xizmatlar hajmini mustaqil ravishda belgilash;

- o'z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga egalik qilish va ularni amalga oshirish, zimmasiga majburiyatlar olish, sudda da'vogar va javobgar bo'lish;

- belgilangan tartibda bo'linmalar, markazlar, firmalar, korxonalar, filiallar, vakolatxonalar, qo'shma korxonalar tashkil etish, turli respublikadagi va xalqaro tashkilotlar va birlashmalarga a'zo bo'lish;

- qonunchilikda belgilangan tartibda aksiya va boshqa qimmatli qog'ozlarini chiqarish va joylashtirish, shuningdek O'zbekiston Respublikasi hududida va undan tashqarida aksiyadorlik jamiyatlarining aksiyalari va boshqa qimmatli qog'ozlarini sotib olish;

- Jamiyatning ishchilariga va boshqa shaxslarga, jumladan zayom ajratgan holda uy-joylar qurish, sotib olish va ularni belgilangan tartibda jismoniy va yuridik shaxslarga sotish;

V bo'lim. Jamiyat faoliyatini boshqarish

37. Jamiyatning aksiyadori, Kengashi va ijro etuvchi organi Jamiyatning boshqaruv organlaridir.

38. "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 58-moddasiga asosan, Jamiyatda aksiyadorning umumiy yig'ilishi vakolatiga kiritilgan masalalar bo'yicha qarorlar Jamiyatning yagona aksiyadori tomonidan yakka tartibda qabul qilinadi, hamda yozma shaklda rasmiylashtiriladi.

39. Jamiyatning Kengashi - kuzatuv kengashi (keyingi o'rinlarda Kengash deb ataladi) funksiyalarini bajaradi.

40. Jamiyat Bosh direktori Jamiyatning ijro etuvchi organi hisoblanadi, u yakkaboshchilik asosida Jamiyatni boshqaradi.

41. Jamiyat va uning tarkibiy bo'linmalari, korxonalari, tashkilotlari va muassasalari o'rtasidagi munosabatlar qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

42. Jamiyat tomonidan o'tgan moliyaviy yil uchun belgilangan biznes reja parametrlarining sof foyda ko'rsatkichi bajarilgan taqdirda, jamiyatning homiylik va boshqa qaytarilmaydigan yordamlar uchun xarajatlari o'tgan yil sof foydasining 5 foizidan ortib ketmasligi shart.

Jamiyat aksiyadorining vakolatlari

43. Jamiyat yagona aksiyadorining umumiy yig'ilishi Jamiyatning yuqori boshqaruv organidir.

44. Jamiyat aksiyadorlarining yillik umumiy yig'ilishi har yili moliya yili tugaganidan keyin olti oydan kechiktirmay, iyun oyi oxirgi haftasida o'tkaziladi.

45. Jamiyat yagona aksiyadorining vakolatlariga quyidagilar kiradi:

- Jamiyat ustaviga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish, jumladan Jamiyat ustav fondini (ustav kapitalini) oshirish va e'lon qilingan aksiyalar sonini kamaytirish, shuningdek Jamiyatning yangi tahrirdagi ustavini tasdiqlash;

- Jamiyatni qayta tashkil etish;

- Jamiyatni tugatish, tugatuvchini (tugatish komissiyasini) tayinlash hamda oraliq va yakuniy tugatish balanslarini tasdiqlash;

- e'lon qilingan aksiyalarning eng ko'p miqdorini belgilash;
- Jamiyatning ustav fondini (ustav kapitalini), ko'paytirish yoki kamaytirish;
- Jamiyatning o'z aksiyalarini olish;
- Jamiyatning tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash;
- yillik hisobotini tasdiqlash;
- biznes-rejasini, shuningdek jamiyat faoliyatining asosiy yo'nalishlari va maqsadidan kelib chiqqan holda jamiyatni o'rta muddatga va uzoq muddatga rivojlantirishning aniq muddatlari belgilangan strategiyasini tasdiqlash;
- belgilangan tartibda tayinlanganidan so'ng, boshqaruv raisi va a'zolari bilan mehnat shartnomasini Jamiyat nomidan tuzish;
- Jamiyat boshqaruviga to'lanadigan haq va (yoki) kompensasiyalarni, shuningdek ularning eng yuqori miqdorlarini belgilash;
- Jamiyatning foydasi va zararlarini taqsimlash;
- majburiy auditorlik tekshiruvini o'tkazish to'g'risida, jumladan Jamiyatning moliyaviy hisobotini Xalqaro moliyaviy standartlarga muvofiq uchun auditorlik tashkilotini belgilash, ushbu tashkilotning xizmatlariga to'lanadigan eng ko'p haq miqdori va u bilan shartnoma tuzish (shartnomani bekor qilish) to'g'risida qaror qabul qilish;
- Jamiyat nomidan Jamiyat ichki audit xizmati xodimlari belgilangan tartibda tayinlanganidan so'ng mehnat shartnomasini tuzish;
- Jamiyat boshqaruv va nazorat organlari bildirgilari (hisobotlari) shakl va tarkibiga talablarni belgilash;
- Jamiyat aksiyalarini maydalash va yiriklashtirish;
- "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 8 va 9-boblarida nazarda tutilgan holatlarda Jamiyat tomonidan bitimlar tuzish to'g'risida qaror qabul qilish;
- "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 34-moddasiga muvofiq aksiyalarni joylashtirish (qimmatli qog'ozlarning birja bozoriga va uyushgan birjadan tashqari bozoriga chiqarish) narxini belgilash;
- Jamiyat tomonidan korporativ obligasiyalar, shu jumladan aksiyalarga ayirboshlanadigan obligasiyalar chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish;
- qimmatli qog'ozlarning hosilalarini chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish;

- qimmatli qog'ozlar chiqarish, qimmatli qog'ozlar emissiya risolasini chiqarish, o'zgartirish va/yoki ularga qo'shimchalar kiritish qarorini va matnini tasdiqlash;

- Jamiyatning korporativ obligasiyalarini qaytarib sotib olish to'g'risida qaror qabul qilish;

- dividendlarni miqdori, to'lash shakli va tartibi bo'yicha qaror qabul qilish;

- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa masalalarni hal etish;

Jamiyat Kengashi

46. Jamiyat kuzatuv kengashi jamiyat faoliyatiga umumiy rahbarlikni amalga oshiradi, amaldagi Qonunchilik va jamiyat ustavi bilan yagona aksiyadori yig'ilishining vakolat doirasiga kiritilgan masalalarni hal etish bundan mustasno.

Jamiyat kuzatuv Kengashining a'zolari yagona aksiyadorining yig'ilishi tomonidan uch yil muddatga saylanadilar. Jamiyat kuzatuv kengashi a'zolarining soni 5 (besh) kishidan iborat.

47. Jamiyat Kengashi vakolatiga quyidagilar kiradi:

- Jamiyat faoliyatining ustuvor yo'nalishlarini belgilash;

- Jamiyat ustavini yangi taxrirda tasdiqlash;

- mol-mulkning bozor qiymatini belgilashni tashkil etish;

- Jamiyatning yillik biznes-rejasini ma'qullash. Bunda Jamiyatning kelgusi yilga mo'ljallangan biznes-rejasi Jamiyat Kengashi majlisida joriy yilning 1 dekabridan kechiktirmay ma'qullanishi lozim;

- ichki audit xizmatini tashkil etish va uning xodimlarini tayinlash, shuningdek har chorakda uning hisobotlarini eshitib borish;

- Jamiyat ijro etuvchi organining faoliyatiga daxldor har qanday hujjatlardan belgilangan tartibda erkin foydalanish va Jamiyat Kengashiga yuklangan vazifalarni bajarish uchun ushbu hujjatlarni ijro etuvchi organdan olish. Jamiyat Kengashi va uning a'zolari olingan hujjatlardan faqat xizmat maqsadlarida foydalanishi mumkin;

- Zaruriyat tug'ilganda Jamiyatda korporativ boshqaruv tizimini baholash uchun tanlov asosida mustaqil tashkilotni jalb etish;

- Jamiyat biznes-rejasida belgilangan maqsadlarga erishishni monitoring qilish;

- Korporativ boshqaruv kodeksi bajarilishini nazorat qilish;

- Jamiyatning aksiyadoriga dividend miqdori, uni to'lash shakli va tartibi yuzasidan tavsiyalar berish;

- Jamiyatning zaxira va boshqa fondlaridan foydalanish;

- Jamiyatning filiallarini tashkil etish va vakolatxonalarini ochish;

- Jamiyatning sho'ba va tobe xo'jalik jamiyatlarini tashkil etish;

- "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 8 va 9-boblarida nazarda tutilgan holatlarda bitimlar tuzish haqida qaror qabul qilish;

- Jamiyatning tijorat va notijorat tashkilotlardagi ishtiroki bilan bog'liq bitimlarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tuzish.

48. Jamiyat Kengashi faoliyatining tartibi Jamiyat Kengashi to'g'risidagi Nizomda belgilanadi.

49. Jamiyat Kengashining vakolati doirasiga kiritilgan masalalar Jamiyat Boshqaruviga hal etish uchun berilishi mumkin emas.

50. Jamiyat Kengashi qarorlari, qonunchilikda va mazkur Ustavda boshqa qoida belgilanmagan bo'lsa, oddiy ko'pchilik ovoz bilan qabul qilinadi.

51. Jamiyat Kengashining yig'ilishlari har chorakda kamida bir marta o'tkaziladi.

52. Jamiyat Kengashi raisi, Kengash tomonidan qaror qabul qilish paytida, agar ovozlar soni teng bo'lib qolsa, hal qiluvchi ovozga ega bo'ladi.

Jamiyat Bosh direktori

53. Jamiyatning kundalik faoliyatiga rahbarlik qilish vakolati Jamiyat Bosh direktori tomonidan amalga oshiriladi. Jamiyatning Bosh direktori Yagona aksiyador qaroriga asosan uch yil muddatga saylanadi.

Jamiyat Bosh direktori qonun hujjatlari, ushbu Ustav va Yagona aksiyador qarori bilan tasdiqlangan «Ijroiya organi (Bosh direktor) to'g'risida»gi nizom asosida ish yuritadi.

54. Jamiyat Bosh direktorining vakolatlariga Jamiyatning kundalik faoliyatiga rahbarlik qilishga doir barcha masalalar kiradi, Yagona aksiyador vakolatlariga yoki Jamiyat Kuzatuv kengashining vakolatlariga kiritilgan masalalar bundan mustasno.

Jamiyat Bosh direktori Yagona aksiyador va Jamiyat Kengashining qarorlari bajarilishini tashkil etadi.

55. Jamiyat Bosh direktori vakolatiga quyidagilar kiradi:

- Ustav va Jamiyat Kengashi tomonidan o'ziga berilgan vakolatlarga muvofiq Jamiyatning ishiga rahbarlik qilish;
- Jamiyat Kuzatuv kengashining roziligiga ko'ra uning ishida maslahat ovozi bilan ishtirok etish;
- Jamiyat nomidan ishonchnomasiz ish yuritish, davlat muassasalari, barcha mulk shakllaridagi korxonalar va tashkilotlarda uning manfaatlarini himoya qilish;
- banklarda hisob raqamlar, shu jumladan valyuta hisob raqamlarini ochish va Jamiyatning bank va boshqa moliya hujjatlarida birinchi imzo vakolatiga ega bo'lish;
- Jamiyat mijozlari va boshqa korxonalar va tashkilotlar bilan shartnomalar va kontraktlarni imzolash va bitimlar tuzish;
- o'z vakolatlari doirasida Jamiyatning mol-mulki va pul mablag'larini tasarruf etish;
- shtatlarni belgilash, xodimlarning shtat ro'yxatini tasdiqlash, Jamiyat xodimlarini ishga qabul qilish, ular bilan mehnat shartnomalarini tuzish va bekor qilish, ularga nisbatan intizomiy jazo choralarini qo'llash, xodimlar tomonidan mehnat va ijro intizomini saqlab turishini ta'minlash;
- Jamiyatning filiali yoki vakolatxonasi rahbarini tayinlash;
- Jamiyatning tarkibiy bo'linmalar, filiallar to'g'risidagi nizomlari, xodimlarning lavozim yo'riqnomalarini tasdiqlash;
- Jamiyat tizimiga kiruvchi tarmoq korxonalarining faoliyatini nazorat qilish;
- Jamiyat nomidan amaldagi qonunchilikka asosan ishonchnomalarni berish;
- Jamiyatning barcha xodimlari tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan buyruq va farmoyishlar chiqarish va ko'rsatmalar berish;
- Jamiyatning ichki me'yoriy hujjatlarini tasdiqlash, Yagona aksiyador yig'ilishi yoki Jamiyat Kuzatuv kengashi vakolatlariga kiritilgan masalalar bundan mustasno;
- Jamiyatning tarkibiy bo'linmalarining o'zaro samarali harakatini ta'minlash;
- Jamiyat Kengashi tomonidan tasdiqlangan biznes-rejada ko'rsatilgan miqdorlarda foyda olishni ta'minlash;
- Jamiyatni rivojlantirish dasturlari va biznes-rejalari ishlab chiqilishiga rahbarlik qilish;
- Jamiyatning faoliyatida qonun hujjatlari talablariga rioya qilinishini ta'minlash;

- amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq Jamiyatda buxgalteriya hisobi va hisobotning tashkil etilishi, zarur holati va ishonchliligini, yillik hisobotlar va boshqa moliyaviy hisobotlar tegishli organlarga o'z vaqtida taqdim etilishini, shuningdek Yagona aksiyadorga, kreditorlarga va boshqa ma'lumot oluvchilarga yuboriladigan Jamiyat faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlar taqdim etilishini ta'minlash;

- Jamiyatning moliya-xo'jalik faoliyati to'g'risidagi hujjatlarni Jamiyatning Kengashi, Jamiyat auditori talabiga ko'ra taqdim etish;

- davlat statistika hisoboti va buxgalteriya xisobotini tegishli organlarga to'liq va o'z vaqtida taqdim etilishini ta'minlash;

- xizmat yoki tijorat sirini tashkil etuvchi axborotning Jamiyat xodimlari tomonidan saqlanishini ta'minlash;

- Jamiyatni malakali kadrlar bilan ta'minlash, Jamiyat xodimlarining bilimi, malakasi, tajribasi va qobiliyatlaridan samarali foydalanish choralarini ko'rish;

- Jamiyat xodimlarining ijtimoiy kafolatlariga rioya qilinishini va ularning mehnati muhofaza qilinishini ta'minlash;

- Jamiyat Yagona aksiyador yig'ilishida qatnashish, dividendlar hisoblanishi va to'lanishi bo'yicha aksiyadorlarning barcha huquqlariga rioya qilish;

- Jamiyat Yagona aksiyador yig'ilishi va Kengashi vakolatlariga kiradigan masalalar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Qonuni va jamiyat Ustavida belgilangan tartibda Kengashi yig'ilishini o'tkazish to'g'risida talab qilish;

- qonun hujjatlari, ushbu Ustav va «Ijroiya organi (Bosh direktor) to'g'risida»gi nizomga muvofiq Bosh Direktor vakolatiga kiruvchi boshqa masalalarni hal etish.

56. Jamiyat Bosh direktori har chorakda Jamiyat Kengashi oldida Jamiyatning yillik biznes-rejasini bajarish qanday borayotganligi yuzasidan hisobot beradi.

Jamiyat Bosh direktori Yagona aksiyador yig'ilishida moliya yili yakunlariga ko'ra Jamiyatning moliya-xo'jalik faoliyati natijalari to'g'risida hisobot beradi.

Jamiyatning Bosh direktorini tayinlash to'g'risidagi qaror, xorijiy menejerlar ham ishtirok etishi mumkin bo'lgan tanlov asosida qabul qilinadi.

57. Jamiyat Bosh direktorining huquq va majburiyatlari tegishincha qonun hujjatlarida, Jamiyat Ustavida, Yagona aksiyador yig'ilishi tomonidan tasdiqlanadigan «Ijroiya organi (Bosh direktor) to'g'risida»gi nizomda hamda u Jamiyat bilan bir yil muddatga tuzadigan shartnomada belgilanib, shartnomaning

amal qilish muddatini uzaytirish yoki uni bekor qilish mumkinligi to'g'risida har yili qaror qabul qilinadi. Shartnoma Jamiyat nomidan Jamiyat Kengashining raisi yoki Kengashi vakolat bergan shaxs tomonidan imzolanadi. Jamiyatning Bosh direktori bilan tuziladigan shartnomada uning Jamiyat faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha majburiyatlari hamda Jamiyatning yillik biznes-rejasini bajarish qanday borayotganligi yuzasidan Yagona aksiyador yig'ilishi va Jamiyat Kengashi oldida beradigan hisobotlarining davriyligi nazarda tutilishi kerak.

58. Bosh direktor quyidagilarga haqli:

- o'z vakolatiga tegishli masalalar bo'yicha mustaqil ravishda qarorlar qabul qiladi;

- Jamiyat nomidan ishonchnomasiz ish yuritadi, boshqa tashkilotlar va organlar bilan o'zaro munosabatlarda uning manfaatlarini ifodalaydi;

- Jamiyat Kengashining roziligiga ko'ra uning ishida maslahat ovozi bilan ishtirok etadi;

- Jamiyat Kengashining roziligiga ko'ra boshqa tashkilotlarning boshqaruv organlarida lavozimga ega bo'lishi mumkin;

- haq olish;

- Bosh direktor boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

59. Bosh direktor majburiyatlari:

- Jamiyat manfaatlarini ko'zlab ish tutish;

- o'z majburiyatlarini u bilan tuzilgan mehnat shartnomasi shartlariga muvofiq tegishli tarzda bajarish;

- Yagona aksiyodorni yig'ilishi va Jamiyat Kengashi qarorlarining bajarilishini nazorat qilish;

- Jamiyatning yillik biznes-rejasi ko'rsatkichlarining bajarilishini ta'minlash;

- Jamiyat Kengashi va Yagona aksiyodor yig'ilishi oldida hisobot berish;

- aksiyadorning amaldagi qonun hujjatlarida ko'zda tutilgan axborotlarni olish, Yagona aksiyodor yig'ilishlarida ishtirok etish, dividendlar hisoblash va to'lash bo'yicha barcha huquqlariga rioya etilishini nazorat qilish;

- qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Jamiyat faoliyati to'g'risidagi axborotni tegishli tarzda oshkor etilishini nazorat qilish;

- Jamiyatning moliya-xo'jalik faoliyati to'g'risidagi hujjatlarni Jamiyatning Kengashi, Jamiyat auditori talabiga ko'ra taqdim etilishini ta'minlash;

- Jamiyat tarkibiy tuzilmalarining samarali hamkorlik yuritishini ta'minlash;

- Jamiyat shartnoma majburiyatlarining bajarilishini ta'minlash;
- Jamiyatda buxgalteriya hisobining tashkil etilishi, holati va ishonchliligi, tegishli organlarga yillik hisobot va boshqa moliyaviy hisobotlar o'z vaqtida taqdim etilishi yuzasidan nazoratni amalga oshirish;
- davlat statistika hisoboti va buxgalteriya hisobotini tegishli organlarga to'liq va o'z vaqtida taqdim etilishi yuzasidan nazoratni amalga oshirish;
- Jamiyatning tijorat sirini tashkil etuvchi axborotning saqlanishini ta'minlash;
- Jamiyat faoliyati to'g'risidagi maxfiy axborotni oshkor qilmaslik;
- Jamiyatni malakali kadrlar bilan ta'minlash, Jamiyat xodimlarining bilimi, malakasi, tajribasi va qobiliyatlaridan samarali foydalanish choralarini ko'rish;
- qonun hujjatlarida belgilangan tartibda mehnat munosabatlari bilan bog'liq masalalarning hal etilishini ta'minlash;
- Jamiyat faoliyatida qonun hujjatlari, ushbu Ustav, «Ijroiya organi (Bosh direktor) to'g'risida»gi Nizom va Jamiyatning boshqa ichki hujjatlari talablariga rioya qilish.
- Bosh direktor qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlarga ega bo'lishi mumkin.

60. Yagona aksiyadorning yig'ilishi tomonidan tayinlanadigan Jamiyat Bosh direktorining vakolatlari muddatidan ilgari tugatilgan taqdirda, Jamiyat Kengashining qarori bilan belgilangan shaxs uning vazifalarini . Yagona aksiyadorning navbatdagi yig'ilishigacha bo'lgan davrda vaqtincha bajarib turishiga yo'l qo'yiladi.

VI bo'lim. Jamiyatning mulki, vositalari va sarmoyalari

61. Jamiyatning mulki egalik qilish, foydalanish, tasarruf etish ob'ektlari bo'la oladigan moddiy ob'ektlar, shu jumladan pul mablag'lari, qimmatli qog'ozlar, ulushlar (paylar, hissalar) hamda nomoddiy ob'ektlarlaridan iborat bo'ladi;

62. Jamiyat o'zining mustaqil balansida hisobga olinadigan alohida mulkiga ega bo'ladi. Jamiyat o'z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga egalik qilishi va ularni amalga oshirishi, majburiyatlar bo'yicha javob berishi, sudda da'vogar va javobgar sifatida ishtirok etishi mumkin.

63. Jamiyat mulki quyidagi manbalar hisobidan shakllanadi:

- mahsulotlarni sotishdan, ish va xizmat ko'rsatishdan, shuningdek xo'jalik faoliyatining boshqa turlaridan olinadigan daromadlar;

- sotib olingan qimmatbaho qog'ozlardan tushgan daromadlar;
- ustav kapitalida ulushga ega bo'lgan nodavlat mulkchilik shaklidagi sub'ektlar foydasidan, shuningdek dividendlar tarzida olinadigan daromadlar;
- markazlashgan va markazlashmagan ajratmalar va mablag'lar;
- O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi tomonidan taqiqlanmagan boshqa manbalar.

64. Jamiyatning daromadi barcha turdagi xizmatlar va bajariladigan ish, shuningdek Jamiyatning tarkibiy bo'linma va korxonalarining mahsulotini sotishdan tushadigan tushumlardan markazlashgan tartibda shakllanadi.

65. Jamiyatning tarkibiy bo'linmalari, korxonalari, tashkilotlari va muassasalari o'rtasida bepul (beminnat) beriladigan (olinadigan) mol-mulkning qiymati daromad (zarar) deb hisoblanmaydi va qabul qilib oluvchi (beruvchi) tomonidan qo'shimcha qiymat solig'i va daromad solig'i bo'yicha soliqqa tortilmaydi;

66. Jamiyat korxonalari o'rtasidagi ichki ko'chirishlar (o'tkazishlar), tashish jarayonini ta'minlash bilan bog'liq ish bajarish, xizmat ko'rsatishlar mahsulot sotish (ish, xizmat)dan olinadigan daromad (aylanma) sifatida qaralmaydi.

67. Jamiyat o'z tasarrufidagi bo'lgan mulk va mablag'lardan barcha korxonalarining manfaatlarini ko'zlab foydalanadi. Belgilangan tartibda qurishi, qayta tiklashi, sotib olishi, ko'chma va ko'chmas mulkni xarid qilishi, olishi, ijaraga olishi va berishi (ijaraga berilayotgan mulkning ijara haqi yuz foiz miqdorida ushbu mulkni balansida saqlovchi korxonaning hisob raqamiga tushadi, hamda qonun xujjatlariga zid bo'lmagan boshqa faoliyatlarni amalga oshirishi mumkin.

68. Jamiyat faoliyati natijalari bo'yicha olingan foyda (daromad), soliqlar va byudjetga to'lanadigan boshqa to'lovlar amalga oshirilgandan so'ng Jamiyat aksiyadori qaroriga muvofiq taqsimlanadi.

VII bo'lim. Hisobga olish, hisobot berish va nazorat

69. Jamiyat va uning bo'linmalari buxgalteriya hisobining Milliy andozalariga muvofiq tezkor va buxgalteriya hisobini yuritadi, shuningdek, amaldagi qonunchilikda belgilangan tartibda buxgalteriya va statistika hisobotlarini tuzadi.

70. Jamiyat korxonalari belgilangan tartibda Jamiyatga, soliq va boshqa davlat idoralariga amaldagi qonun xujjatlariga muvofiq o'zining moliyaviy-xo'jalik faoliyati natijalari haqidagi zarur ma'lumotlarni taqdim etadi.

71. Jamiyat va uning tarkibiga kiruvchi korxonalar va bo'linmalarining moliyaviy-xujalik faoliyati nazorati ichki va tashqi audit asosida amalga oshiriladi.

72. Jamiyat va uning tarkibiga kiruvchi korxonalar moliyaviy-xo'jalik faoliyatining ichki auditi, ular tomonidan mulk va mablag'lardan maqsadli foydalanishini tekshirish, shuningdek Jamiyat ijro organining ishini nazorat qilish va baho berish Jamiyatning ichki audit xizmati tomonidan amalga oshiriladi.

73. Jamiyat va uning korxonalari moliyaviy-xo'jalik faoliyatining tashqi auditi, amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq, shartnoma asosida auditorlik tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladi.

74. Jamiyat buxgalteriya hisobining tashkil etilishi, uning holati va haqqoniyligi, yillik hisobot va boshqa moliyaviy hisobotlarning tegishli idoralarga o'z vaqtida taqdim etilishi, shuningdek, Jamiyatning faoliyati haqida kreditorlarga va ommaviy axborot vositalariga taqdim etilgan ma'lumotlar uchun amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ravishda Jamiyatning ijro etuvchi organi mas'uldir.

75. Ko'rsatilgan hujjatlarni e'lon qilishdan oldin Jamiyat, yillik moliyaviy hisobotlarni tekshirish va tasdiqlash uchun Jamiyat yoki uning korxonalari bilan mulkiy manfaatlar bilan bog'liq bo'lmagan auditorni jalb etishi shart.

76. Jamiyat:

- belgilangan tartibda ro'yxatga olingan Jamiyat Ustavini xamda Ustavga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalarni, Jamiyatning tuzilishi va qayta tashkil etilishiga doir hujjatlarni, Jamiyatning davlat ro'yxatiga olinishi haqidagi guvohnomani;

- Jamiyatning o'z balansida bo'lgan mulkka egalik huquqini tasdiqlovchi hujjatlarni;

- Jamiyat tarkibiga kiruvchi korxonalar va bo'linmalar, Jamiyat filiallari va vakolatxonalari haqidagi nizomlarni;

- Jamiyat aksiyadori, Kengashi va Boshqaruvi majlislarining bayonnomalarini, shuningdek Jamiyat Boshqaruvining buyruq va farmoyishlari;

- davlatning tegishli organlariga taqdim etiladigan Jamiyatning moliyaviy hisobotlari;

- hay'atlar, auditorlik tashkilotlari, davlat nazorat idoralarining xulosalari va hisobotlarini;

- Jamiyat Ustavida, Jamiyat boshqaruvi organlari qarorlarida, xamda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa hujjatlarni o'zida saqlashi shart.

VIII bo'lim. Jamiyatni qayta tashkil etish va tugatish

77. Jamiyatni qayta tashkil etish va tugatish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

IX bo'lim. Korporativ maslahatchi

78. Jamiyat kuzatuv kengashiga hisobdor bo'lgan va korporativ qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan nazorat qilish vazifasini jamiyat korporativ maslahatchisi bajaradi.

79. Jamiyat korporativ maslahatchisining faoliyati "Korporativ boshqaruv Kodeksi" va jamiyat kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan "Korporativ maslahatchi to'g'risida"gi Nizom asosida amalga oshiriladi.

X bo'lim. Yakuniy qoidalar

80. Ustav bo'yicha kelib chiqadigan barcha nizo va kelishmovchiliklar aksiyadorning o'zaro kelishuvi yo'li bilan amaldagi qonun hujjatlari va ushbu ustavga asosan hal qilinadi.

81. Nizo va kelishmovchiliklarni muzokaralar yo'li bilan hal qilish imkoniyati bo'lmagan taqdirda ular tegishli ravishda sud orqali hal qilinadi.

82. Mazkur Ustav Jamiyat O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida belgilangan tartibda davlat ro'yxatiga olingan vaqtdan boshlab kuchga kiradi.

83. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari bilan tartibga solinmagan masalalar, qonunda boshqa hollar nazarda tutilmagan bo'lsa, ushbu Ustavga muvofiq tartibga solinadi.

"Toshkent IES"
Bosh direktori



R.T. Shamsiyev